

**“Shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari”**

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

*Amaliy psixologiya yo'nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Rahimboyev Sherzod O'ktamboy o'g'li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning rivojlanishi va rivojlanish, kamolot yetuklik kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. Shuningdek, rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Bolaning individual rivojlanishi va yosh xususiyatlariga bog'liq o'zgarishlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Individ, shaxs, individuallik, rivojlanish, xulq-atvor, dunyoqarash, psixika, kamolot, yetuklik, yetilish, o'sish, ontogenez, intellekt, ijtimoiylashuv.

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. SHaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologikjihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulqatvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

“Individ” nima? Bola ma'lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individium” so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.[1. 154]

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi. Rivojlanish - bu bir holatdan boshqa murakkabrog'iga o'tish, eski holatdan yangi sifat bosqichiga o'tish, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o'tish jarayonidir. Psixikaning rivojlanishi - psixik jarayonlarning miqdor, sifat va tuzilishi bo'yicha qayta o'zgarishlarda namoyon bo'ladigan vaqt bo'yicha qonuniy o'zgarishidir. O'sish - rivojlanish jarayonining miqdor jihati. Rivojlanishning o'sishdan asosiy farqiquyidagicha: o'sish miqdor o'zgarishlariga, rivojlanish esa yangi tuzilmalar, mexanizmlar, jarayonlar, strukturalarning paydo bo'lishida namoyon bo'ladigan sifat o'zgarishlariga taalluqlidir.

Rivojlanish va yetilish tushunchalarini ham bir-biridan farqlash zarur. Bir qator yosh psixologiyasidagi xorijiy nazariyalar uchun yetilish - rivojlanishning muhim omili, u yoki bu yutuqlarning sababidir. Zamonaviy rus rivojlanish psixologiyasida yetilish markaziy nerv sistemasi va boshqa organizm sistemasida ketma-ket yosh o'zgarishlarining psixofiziologik jarayoni, psixik funksiyalarningvujudga kelishi va amalga oshishi uchun sharoitning ta'minlanishi sifatida qaraladi.[2. 214]

Kamolot, yetuklik tushunchalari bilan yosh davrlari psixologiyasining aso-siy tamoyillaridan biri - geteroxron rivojlanishga bog'liq. U inson shart-sharoit, ijtimoiy muhit, individual xususiyatlar ta'sirida turli yosh davrlarida yetuklikka erishishni tavsiflaydi. Bu esa turli yosh davrlari o'zining betakror psixofiziologik tuzilishidan darak beradi va shu yosh davrini psixologik imkoniyatlari potensialini belgilaydi.

Rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. U lar quyidagilar:

- sifat jihatdan o'zgarish va yanada mukammalroq bosqichga ko'tarilish;
- rivojlanishni qaytara olmaslik (rivojlanish ro'y bergandan so'ng, avval mavjud bo'lgan narsa-hodisalarni to'laligicha ortga qaytarishning iloji yo'qligi);

- progress va regress elementlarining umumlashmasi (bir sohadagi progressiv rivojlanish, boshqa bir sohadagi regress yuz berishi mumkinligini bildiradi);

- notekis rivojlanish (sifat o'zgarishlarining tezkor o'zgarishi, miqdor o'zgarishi bilan almashadi); zigzagsimon rivojlanish (yangilanishlarning paydo bo'lganida, natijalar oldingi holatlarga qaraganda, sifat jihatdan yaxshi natija bermasligi. Masalan, bola emaklashdan tik turib yurishga o'tgan davrda, sekin harakatlanadi va jarohatlar olishi mumkinligi ham kuzatiladi);

- rivojlanish darajalaridan bosqichlariga o'tish (yangilanishlar paydo bo'lganda, avval o'zlashtirilgan ko'nikmalar yo'qolib ketmaydi, balki yangilanishlar uchun asos sifatida saqlab qolinadi);

-barqarorlik ko'rsatkichi.[3.190]

Psixologik rivojlanishning asosiy uch turi mavjud: filogenetik, ontogenetik va funksional. Filogenez psixikasi - insoniyat tarixida insonning psixik shakllanishi va biologik evolutsiyasi, Ontogenez psixikasi - individning butun umri davomida psixologik tuzilishining shakllanishi. Funksional rivojlanish psixikasi - psixologik funksiyalar, yangilanishlar, yangi intellektual, perseptiv, mnemik, aqliy funksiyalarning paydo bo'lishi. Bu ontogenetik taraqqiyotning bir qismi hisoblanadi. Psixik rivojlanishning yuqoridagilardan tashqari me'yoriy va individual rivojlanish shakllari ham mavjud. Me'yoriy rivojlanish shu yosh davridagi insonlarga xos bo'lgan o'zgarishlarni tavsiflaydi. Aksariyat hollarda me'yor borasida, psixologik va shaxs rivojlanishining yuqori darajasi deb qaraladi. Individual rivojlanish shaxsning alohida xususiyatlarining vujudga kelishini anglatadi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. SHunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni

bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Y an Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.[4. 310]

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi: Intellektual rivojlanish - tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, sektsiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o'smir xarakterida murakkab qaramaqarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar - yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q. Eng muhim qiziqish - teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. SHuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga bordigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi. O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. SHuning uchun maktab hayoti "qiyin" vazifalarga to'liq bo'ladi. Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. "Dangasa", "qo'pol", "bee'tibor", "qobiliyatsiz" degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar. O'smir yoshida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual

malakalar pasayadi. SHuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim.[5. 168]

Shaxsning ijtimoiylashuvi. SHaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.[6. 257]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shaxs rivojlanishida uning psixologik xususiyatlariga va rivojlanayotgan sharoitiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, muayyan yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti o'quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iborat. Buesa o'quvchining psixik dunyosidan yaxshi xabardor bolishni, psixologik jihatdan kuzatishni to'g'ri tashkil qila olishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishni taqozo qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ergash G'oziyev - "Ontogenez psixologiyasi" . Toshkent 2010
2. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova , D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova - "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" T-2018
3. Sh.A.Do'stmuhammedova , Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.K..Karimova,

4. A.K. Shamshetova, R.N.Meliboyeva, X.E.Usmanova, I.O. Xaydarov - “Umumiy psixologiya”. T-2018
5. Z.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Ataboyeva, Z.Qurbonova- “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” T-2013
6. A.V. Petrovskiy- “Umumiy psixologiya”